



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-109-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on nohiyasi Kengashi rayosatining 1991-yil 28-martdagi 24-5/04-son qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 56- va 59-moddalari, “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi Kattaqo‘rg‘on tuman Adliya bo‘limining 2025-yil 24-iyuldagi 3/5-105-25-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Adliya boshqarmasi Kattaqo‘rg‘on tuman Adliya bo‘limining 2025-yil 25-iyundagi 3/5-105-25-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Chilmатов Tair Mardonovichning taqdim etilgan hujjatlari o‘rganib chiqilgan deb hisoblansin.
3. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on nohiyasi Kengashi rayosatining 1991-yil 28-martdagi 24-5/04-son qarorining ilovasidagi 9-tartib raqamidagi “Chilmатов Toxir” ismi sharifiga o‘zgartish kiritilib, o‘rniga “Chilmатов Tair Mardonovich” deb o‘qilsin va bu haqida Kattaqo‘rg‘on shahar davlat arxivi (B.Sirojiddinov)ga ma’lum qilinsin.
4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doimiy komissiya (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.
5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH